



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**SURXONDARYO VILOYATI XUDUDIDA SANOATNI SHAKILANISHI VA
RIVOJLANISHI**

**ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В РЕГИОНЕ
СУРХАНДАРЬЯ**

INDUSTRY FORMATION AND DEVELOPMENT IN SURKHANDARYO REGION

Uralov Eliboy Omonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti

Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası professori, PhD.

O‘rindosh TAFU Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya kafedrası professor, PhD.

ORCID: 0009-0004-3183-2894

Аннотация

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati hududlarida sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning joriy holati va undan samarali foydalanish imkoniyatlari chuqur o‘rganildi. Maqola natijalari sanoatni hududiy rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda, iqtisodiy rejalashtirish va investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Калит сўзлар: hududiy rivojlanish, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish resurslari, iqtisodiy islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, tarkibiy tuzilma, sanoat siyosati, statistik tahlil

В данной статье подробно исследуется текущее состояние использования производственного потенциала в развитии промышленности регионов Сурхандарьинской области и возможности его эффективного применения. Результаты статьи имеют большое значение для совершенствования региональной стратегии промышленного развития, формирования экономического планирования и инвестиционной политики.

Ключевые слова: региональное развитие, промышленный потенциал, производственные ресурсы, экономические реформы, макроэкономическая стабильность, валовой внутренний продукт, структурная структура, промышленная политика, статистический анализ.

This article deeply studies the current state of utilization of production potential in the development of industry in the regions of Surkhandarya

region and the possibilities of its effective use. The results of the article are of great importance in improving the regional development strategy of industry, in the formation of economic planning and investment policy.

Keywords: regional development, industrial potential, productive resources, economic reforms, macroeconomic stability, gross domestic product, structural structure, industrial policy, statistical analysis.

Mamlakatimizning eng janubida joylashgan Surxondaryo viloyati 6 mart 1941 yilda tashkil topgan. Uning maydoni 20,1 ming kv. km bo‘lib, jami O‘zbekiston Respublikasi hududining 4,5 foiziga teng. Viloyatda, 2025 yilning dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2945,5 ming kishi yoki mamlakat aholisining 7,9 foizi istiqomat qiladi. Bundan ko‘rinadiki, mintaqaning demografik salohiyati uning maydoniga nisbatan 1,8 marta yuqori [1].

Surxondaryo viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida o‘zining agrosanoat majmuasi, xususan paxta va g‘alla etishtirish, chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu erda

tog‘-kon sanoati polimetall rudalar, toshko‘mir, neft, tuz, qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda.

Mintaqa qator o‘zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning eng janubida, eng tog‘li, eng issiq hududida joylashgan; viloyat urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi eng past, demografik rivojlanish, ya‘ni aholi tabiiy ko‘payishi eng yuqori hududlardan biridir. Ma‘muriy jihatdan Surxondaryo viloyati 15 ta hududiy tumani, 8 ta shahar va 114 ta shaharchalardan iborat. har bir hudud tumaniga o‘rtacha 1,44 kv km maydon va 139,1 ming kishidan aholi to‘g‘ri keladi. Viloyatning dastlab tashkil etilgan (1926 yil) hudud tumanlari Denov, Sariosiyo, Termiz va Sherobod, eng so‘nggisi esa 1992 yilda tarkib topgan Bandixon tumani sanaladi. Maydoni bo‘yicha eng kattalari Sariosiyo va Boysun, eng kichigi Bandixon atigi 0,20 ming kv. km ular orasidagi farq yaqin 20 barobar. Umuman olganda, Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Qumqo‘rg‘on tumanlari birligida 12,6 ming kv.km yoki viloyat maydonining 62,6 foizini egallaydi [3].

Geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari. Surxondaryo O‘zbekistonning eng janubida, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, hisor tog‘ining janubiy etaklarida joylashgan. O‘zbekiston Respublikasi doirasida u shimolda Qashqadaryo viloyati bilan, geosiyosiy miqyosda esa g‘arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston va janubda Afg‘oniston davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakatimizda faqat Toshkent va Surxondaryo viloyatlari 3 tadan davlatlar bilan tutash, biroq bunday siyosiy geografik o‘rin, geosiyosiy vaziyat Surxondaryo viloyati uchun o‘zgacha xususiyat kasb etadi.

Tabiiy geografik jihatdan u faqat janub tomonga “ochiq”, xolos; qolgan uch tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan. Bunday er ustining tuzilishi, orografik xususiyat mintaqalarning iqlimining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Iqlimi quruq, issiq, yog‘in-sochin miqdori o‘rtacha 130-180 mm, tog‘ yon bag‘irlarida 600 mm gacha etadi. harorat respublika bo‘yicha eng yuqori, vegetatsiya davri uzoq. Agroiqlimiy sharoitlar sug‘orma dehqonchilikni taqozo etadi.

Bu erda, mamlakatimizni boshqa hududlaridan farq qilib, subtropik xo‘jalik yaxshi rivojlangan. Asosiy daryolari Surxon va Sherobod viloyat xo‘jaligi va aholi geografiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi, ulardan barpo etilgan qator kanal va suv omborlari Uchqizil, Qumqo‘rg‘on, Janubiy Surxon suv omborlari, Katta hisor, Amu — Zang, Hazorbog‘ va boshqa kanallar yordamida sug‘orma dehqonchilikda foydalaniladi. Tog‘ yonbag‘irlarida lalmikor dehqonchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik uchun sharoit qulay. Umuman olganda, Surxondaryo respublikamizda nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlangan viloyat hisoblanadi.

Surxondaryo maydonining hajmi va er usti tuzilishi bo‘yicha respublikamizda Jizzax viloyatiga biroz o‘xshab ketadi. Viloyat mineral — resurs salohiyatiga ham ega — toshko‘mir Sharg‘un, To‘da, Boysun, neft Havotog‘, Ko‘kaydi, Uchqizil, Lalmikor, polimetall rudalar Xonjizsa, turli xil tuzlar Xo‘jaikon kabilar sanoat ahamiyatiga ega. Ayni vaqtda mintaqada xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda Malayziya va boshqa geologik qidiruv ishlari ham olib borilmoqda. Asosiy maqsad yangi neft va gaz konlarini topishdan iborat.

Surxondaryo farmatsevtika resurslariga boy, bu erda respublika dorivor o‘simliklarining 35-40 foizi joylashgan. Shu o‘rinda mintaqaning rekreatsiya va turistik salohiyatini ham alohida ta‘kidlash joiz Omonxona, Uchqizil, Xo‘jaikon va boshqalar. Viloyatning arxeologik topilmalari, tarixiy yodgorliklari, ilk urbanizatsiya qoldiqlari, karst g‘orlari, buloq va chashmalari, o‘ziga xos tabiiy landshafti, qadamjo va ziyoratgohlari xalqaro va mahalliy, diniy va ekoturizmning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada Termiz shahrida tashkil etilgan geologik muzey ham katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Surxondaryo viloyatining hozirgi iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rmini uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun uncha qulay emas, tabiiy-resurs salohiyatini esa ijobiy baholash mumkin.

So‘nggi yillarda sanoatni hududiy tarkibini takomillashtirish, yangi texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish, hududlarni iqtisodiy ko‘rsatgichlarni aniqlash va tezroq hududlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, bu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Xususan, 2024 yil 16 dekabr PQ-439-son Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy

xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida [3] bu qaror turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

D.Sh. Raximov o‘zining “Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo‘nalishlari” nomli maqolasida “Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan-mintaqa sanoati raqobatbardoshligini oshirish, o‘z imkoniyatlari hisobiga ichki talabni qondirish, hududlararo, respublika va xalqaro bozorlar ulushini kengaytirish, sinergetika samarasini olish, resurs tejamkor siyosatni ishlab chiqish, byudjet yig‘imlarini ko‘paytirish, moliyaviy barqarorlik va hududlar mustaqilligini ta‘minlash muhim hisoblanadi” deb iqtibos keltiradi [4].

B.B. Muhammadjonovning “O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari” nomli maqolasida “Hozirgi kunda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo‘ljallangan, muhandislik kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma‘lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi” deb ta‘kidlaydi [5].

S.A. Sheraliyevaning “Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish” deb atalgan maqolasida hududlar sanoatini rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar ahamiyati to‘g‘risida va investitsiyalarni jalb etish loyihalarining muhimligi haqida fikr yuritadi [6].

Bu borada erkin iqtisodiy hududlarning samarali investitsion va moliyaviy menejmentini tashkil qilish, iqtisodiy salohiyatdan unumli foydalanishda investitsiyalarni maqsadli jalb etish, eksport salohiyatini oshirish, kelajakda mamlakat, mintaqa, tarmoq va alohida korxona iqtisodiyotiga investitsion faollik ta‘sirini baholash uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Shunga qaramay, ular ichida eng asosiy omil sifatida tashkil etilgan EIHlar faoliyati samaradorligining jahon iqtisodiyoti va alohida viloyatlar iqtisodiyoti o‘sish darajasidan bir necha barobarga yuqori ekanligini alohida ta‘kidlash lozim.

Surxondaryo viloyati sanoatini hududiy tarkibini takomillashtirish tadqiqot metodologiyasi Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida sanoat tarmog‘i muhim o‘rin egallaydi. Hududda sanoatni samarali rivojlantirish va uning hududiy tarkibini takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan tadqiqot metodologiyasidan foydalanish muhim hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi sanoatning hududlar bo‘yicha joylashuvi, rivojlanish darajasi va mavjud imkoniyatlarini tahlil qilishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Surxondaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqot jarayonida eng avvalo tahlil va sintez usullaridan foydalaniladi. Tahlil usuli orqali viloyat sanoatining alohida tarmoqlari, ishlab chiqarish hajmi, korxonalar soni va ularning hududlar bo‘yicha joylashuvi o‘rganiladi. Sintez usuli esa olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish va yakuniy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqotda statistik usul muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul orqali Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi, tarmoqlar tarkibi, hududlar kesimidagi rivojlanish darajasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Statistik ma‘lumotlar asosida sanoatning hududiy rivojlanish dinamikasi aniqlanadi.

Bundan tashqari, taqqoslash usuli yordamida Samarqand viloyati tumanlari o‘rtasidagi sanoat rivojlanish darajasi solishtiriladi. Bu esa qaysi hududlarda sanoat rivoji yuqori yoki past ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotda kartografik usul ham qo‘llaniladi. Ushbu usul orqali sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi xaritalar yordamida ko‘rsatiladi. Natijada sanoat markazlari, sanoat zonalari va ishlab chiqarish hududlari aniqlanadi.

Shuningdek, tizimli yondashuv usuli orqali sanoatning transport, xom ashyo bazasi, mehnat resurslari va infratuzilma bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Bu usul sanoat rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot uchun asosiy axborot manbalari sifatida davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari, ilmiy adabiyotlar va iqtisodiy tadqiqot natijalaridan foydalaniladi.

Natijada Surxondaryo viloyatida sanoatning hududiy tarkibini yanada takomillashtirish, yangi sanoat zonalarini tashkil etish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

1-jadval

Surxondaryo viloyatini asosiy iqtisodiy ko‘rsatgichlari (mlrd so‘m) 2020-2025 yil ma’lumotlari [7]

№	Tuman va shaharlar	Sanoat mahsulotlari mlrd so‘m	Foizda	Sanoat mahsulotlari mlrd so‘m	Foizda
		2020 yil		2025 yil	
	Surxondaryo viloyati	4402,8	100	10335,2	100
1	Termiz shahari	826,4	9,1	1417,9	13,7
	Tumanlar				
2	Angor	114,1	2,6	520,1	5,0
3	Bandixon			262,5	2,5
4	Boysun	80,7	1,8	184,3	1,8
5	Denov	575,0	13,0	974,8	9,4
6	Jarqo‘rg‘on	930,4	21,1	1050,9	10,2
7	Qumqo‘rg‘on	208,2	4,7	614,8	5,9
8	Qiziriq	137,4	3,1	353,1	3,4
9	Muzrabot	92,7	2,1	698,9	6,8
10	Oltinsoy	84,3	1,9	300,1	2,9
11	Sariosiyo	342,7	7,8	700,8	6,8
12	Termiz	146,7	3,3	1283,9	12,4
13	Uzun	128,7	2,9	362,4	3,5
14	Sherobod	334,6	7,6	804,6	7,8
15	Sho‘rchi	400,9	9,1	806,1	7,8

Manba: *Surxondaryo viloyati statistika qo‘mitasi ma’lumotlari*

Umumiy holat viloyat kesimida 2020 yilda 4402,8 mlrd so‘m, 2025 yilda 10335,2 mlrd so‘m, o‘shish ko‘rsatgichi +5932,4 mlrd so‘m o‘shish sur‘ati taxminan 2,3 barobar, Viloyatda sanoat sezilarli darajada rivojlangan, yuqori o‘shish kuzatilmoqda. Shaharlar bo‘yicha tahlil Termiz shahrida 2020 yil 826,4 mlrd so‘m (9,1%), 2025 yil 1417,9 mlrd so‘m (13,7%), o‘shish ko‘rsatgichi +591,5 mlrd so‘m. Termiz shahri sanoat markaziga aylanib bormoqda, ulushi ham oshgan. Tumanlar kesimida asosiy o‘zgarishlar eng katta o‘shish kuzatilgan hududlar, Termiz tumanida 146,7 → 1283,9 mlrd so‘mda keskin o‘shish, Muzrabot tumanida 92,7 → 698,9 mlrd so‘m, Angor tumanida 114,1 → 520,1 mlrd so‘m, Qumqo‘rg‘on tumanida 208,2 → 614,8 mlrd so‘m, bu hududlarda yangi sanoat korxonalari yoki investitsiyalar ko‘paygan bo‘lishi mumkin. Ulushi kamaygan hududlar Jarqo‘rg‘on tumanida 21,1% → 10,2% ga katta pasayish, Denov tumanida 13,0% → 9,4%, Sho‘rchi tumanida 9,1% → 7,8% ga, Bu hududlarda o‘shish bo‘lsa ham, boshqa hududlarga nisbatan sekinroq rivojlangan. Barqaror yoki kam o‘zgargan hududlar Boysun tumani 1,8% → 1,8%, Qiziriq tumani 3,1% → 3,4%, Uzun tumani 2,9% → 3,5%. Bu hududlarda sanoat o‘shishi mavjud, lekin katta sakrash kuzatilmagan. Hududiy tarkibdagi o‘zgarishlar oldin sanoat asosan Jarqo‘rg‘on va Denovda tumanlarida jamlangan.

2025 yilga kelib sanoatni Termiz shahri va tumani Muzrabot, Sherobod kabi hududlarga kengaygan, sanoatning hududiy diversifikatsiyasi tarqalishi kuchaygan. Yakuniy xulosa Viloyatda sanoat tez sur‘atda rivojlangan Yangi sanoat markazlari shakllangan hududlar o‘rtasidagi tafovut

biroz kamaygan, lekin hali ham yetakchi hududlar mavjud Investitsiyalar asosan yangi hududlarga yo‘naltirilgan

Surxondaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibini takomillashtirish — agrosanoatni rivojlantirish, chegaraoldi imkoniyatlardan samarali foydalanish, sanoatni tumanlar kesimida mutanosib joylashtirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa iqtisodiy o‘shish, eksport hajmining oshishi va aholi bandligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Hududlar o‘z iqtisodiyotlarini rivojlantirishga turli yo‘llar bilan yondashishlari mumkin – masalan, xalqaro bitimlar samaradorligini oshirish, aholining o‘shishini ta‘minlash, ishlab chiqarish, xizmatlar va logistika tizimlariga qo‘shimcha qiymat qo‘shish, chiqindilar aylanishini yopish va ularni resurslarga aylantirish, iste‘molni oshirish, eksportni ko‘paytirish va importni kamaytirish kabi choralarini amalga oshirish orqali.

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, respublika miqyosida Surxondaryo viloyati o‘zining to‘liq iqtisodiy salohiyatidan foydalanmayotganligi, shuningdek iqtisodiy barqarorlikka erishishda mintaqaning turistik imkoniyatlari yuqori ekanligi e‘tirof qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uralov E.O. Mintaqaviy iqtisodiyot o‘quv qo‘llanma // Toshkent 2023 –yil 98 bet
2. Uralov E.O. Mintaqaviy iqtisodiyot o‘quv qo‘llanma // Toshkent 2023 –yil 110 bet
3. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 16 декабрь “Сурхондарё вилоятининг тоғли-рекреацион худудларида туризм инфратузилмасини яхшилаш ҳамда замонавий хизмат кўрсатиш ва туризм объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-439-сонли Қарор. // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами 51-сон (1175) 2024 йил декабрь
4. Raximov D.Sh. Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategic rivojlantirish yo‘nalishlari. Journal of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences — 2021
5. Muhammadjonov B.B. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Journal of Academic Research in Educational Sciences – Google Scholar 2022.
6. Sheraliyeva S.A. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Journal of Academic Research in Educational Science — 2021